

20 06.2022 y sanasidagi Eng
yaxshi taklif qabul qilish uchun xarid
qilish xujjatlariga ILOVA №1

«Auto Spring Components» MCHJga soliq maslahatchisi
xizmatini xarid qilish uchun tanlov ishtirokchilariga

TEXNIK TOPSHIRIQ

1. Soliq maslaxati xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs bo'lib, u Andijon shaxar xududida joylashgan bo'lishi lozim. Ro'yxatdan o'tish guvoxnomasi taqdim etiladi.

2. Soliq maslaxati xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs buyurtmachining murojaatlariga (yozma, og'zaki, telefon, internet tarmog'i orqali) asosan namunada ko'rsatilgan va keyinchalik imzolanadigan shartnomaning 01.07.2022-yil sanasidan 30.06.2023-yil sanasiga qadar muddat davomida doimiy soliq maslahati xizmatini (mijozga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni xisoblab chiqarish hamda to'lash masalalari bo'yicha maslahat berish, soliq xisobotlarini tuzishda amaliy yordam ko'rsatish), shuningdek, buyurtmachining murojaatiga asosan buxgalteriya xisobi, moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatib boradi.

3. To'lovlar ayni bir davr (oy) da ko'rsatilgan xizmatlar uchun xisob varaq-faktura va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisobotlar (xulosalar) yuborilganidan so'ng, keyingi davrda to'lab beriladi.

4. Buyurtmachining istagiga ko'ra, xizmat ko'rsatish shartnomasi bekor qilinishi mumkin. Bunda buyurtmachi 10 ish kuni avval rasmiy xat orqali Soliq maslaxati xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxsni ogoxlantirishi lozim.

5. Soliq maslaxatchilari tashkiloti, xizmatlarni sifatli bajarishlari va lozim bo'lganda soliq auditini ham o'tkazishga ixtisoslashgan bo'lishlari kerak. Soliq maslahatchisi sertifikati taqdim etiladi.

6. Soliq maslaxati xizmatlari, ushbu soxada yetarli malaka va tajribaga, soliq sohasida kamida o'n yillik mexnat stajiga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Kerakli xujjatlar va malaka sertifikatlari taqdim etiladi.

7. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida olingan axborotning maxfiyligiga qat'iy rioya qilinish lozim.

8. Soliq to'g'risidagi qonun xujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda soliq to'lovchining vakili sifatida davlat soliq xizmati organlarida, shuningdek soliqqa oid nizoni sudgacha xal qilish davomida va sudda qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ish olib borishlari kerak.

9. Soliq maslaxatchisi tashkiloti QQS to'lovchisi yoki to'lovchi emasligini ma'lum qilishi kerak. QQS to'lovchisi xujjati taqdim etiladi.

Buyurtmachi:

Bosh hisobchi

I.I.Dadabayev